



ARTICLE INFO

Received: 14th November 2022

Accepted: 21st November 2022

Online: 24th November 2022

KEY WORDS

Yong'in xavfsizligi, olov, birlamchi vositalar, o't o'chirish vositalari.

Korxonalar, tashkilot va muassasalarda yong'in xavfsizligini ta'minlash hamda favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo'yicha ESLATMALAR:

1. Korxonalar, tashkilot va muassasalar bino, inshootlari hamda xonalarining yong'inga qarshi holati, favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo'yicha javobgarlik ushbu ob'ektlarning rahbarlariga yuklangan.
2. Korxonalar, tashkilot va muassasalar ob'ektlari rahbarlari tegishli buyruq bilan har bir bino va inshoot hamda xonaga yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha javobgar shaxslarni biriktiradi.
3. Yong'in yoki boshqa favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda, insonlar va moddiy boyliklarni qutqarish rejasi ishlab chiqilib, ko'rinarli joylarga o'rnatilishi lozim.
5. Korxonalar, tashkilot va muassasalarda quyidagilarni amalga oshirish lozim:
 - har bir ob'ektda favqulodda vaziyatlarda insonlarni evakuasiya qilish uchun loyihada belgilangan kirish-chiqish yo'laklar turli buyum va jihozlar bilan

OLOV- TILSIZ YOVDIR

Shodmonov Jamshid Jahonqulovich

Buxoro neftni qayta ishlash zavodi

3-sex boshlig'i o'rinbosari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7359296>

ABSTRACT

Ushbu maqolada yurtimizda joriy yilning 15-noyabrdan 15-dekabrgacha "Yong'in xavfsizligi oyligi" munosabati bilan Buxoro neftni qayta ishlash zavodi 3-sexida o'tkazilgan ishlar hamda yong'in xavfsizligiga oid turli ma'lumotlar berilgan.

- to'sib qo'ymaslik;
- evakuasiya kirish-chiqish yo'nalishlarini belgilab beruvchi ko'rsatgichlarni ko'rinarli nuqtalarga joylashtirish;
- bino va inshootlar hamda xonalarni yong'inni o'chirish birlamchi vositalari bilan me'yor talablari asosida jihozlash;
- yong'inga qarshi suv ta'minoti va ichki yong'in o'chirish jo'mraklarining soz holatda bo'lishini, shuningdek, ularni yeng, dastak va ulash moslamalari bilan ta'minlash;
- bino va xonalarda barcha elektr ta'minoti tizimining "Elektr uskunalarning tuzilish qoidalari" talablari asosida ishlashini ta'minlash;
- ob'ektlarda isitish tizimi, qozonxonalar, tabiiy va suyultirilgan gaz, boshqa muqobil yoqilg'i maxsulotlarida ishlaydigan uskunalarning sertifikatlangan hamda soz holatda bo'lishini ta'minlash;
- ob'ektlarning bino va inshootlari, boshqa konstruksiyalarning texnik mustahkamligiga erishish.
- 6. Ish vaqti tugagandan so'ng har bir



xonadagi kondisioner, komp'yuter, tele-video apparaturalar, boshqa turdagi barcha elektr jihozlari va maishiy uskunalarni o'chirib, elektr tarmog'idan uzib qo'yish lozim.

7. Barcha elektr sim va kabellar tashqi himoya qobiqlarining elektr tokiga qarshi chidamlilik darajasini mutaxassislar tomonidan sinovdan o'tkazish.

8. Korxonalar, tashkilot va muassasalarning bino hamda inshootlarida quyidagilar taqiqlanadi:

- Ob'ektlarga yong'in-qutqaruv va boshqa maxsus xizmatlar avtoulavlarining yetib borishi uchun ular harakatlanadigan yo'llarni sun'iy to'siqlar bilan to'sib qo'yish taqiqlanadi;

- yerto'la, sokol, qavatlarda yonuvchi va yengil alanganuvchi suyuqliklar, portlovchi moddalar, gaz ballonlari, aerazol hamda boshqa portlash xavfini yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan moddalarni saqlash;

- chordoqlar, texnik xizmat ko'rsatish joylari, ventkamera va boshqa texnik xonalarda ishlab chiqarish bo'linmalari, ustaxonalarni joylashtirish hamda mahsulotlar, uskunalar va boshqa buyumlarni saqlash;

- yerto'la va yarim yerto'lalarda yonuvchan buyumlar saqlash omborxonalari, ustaxonalar, xo'jalak xonalarini joylashtirish, agar ularga kirish eshiklari umumiy kirish zinalaridan (eshigidan) alohida bo'lmasa;

- yo'laklar, yuqori qavatlarga o'tish lyuklari, qo'shni xonaga o'tish yo'laklaridagi eshiklar va zaxira chiqish yo'llarini turli mebellar, buyumlar va boshqa yonuvchan ashyolar bilan to'sib qo'yish;

- yo'laklar, zaxira chiqish yo'llari va zinapoyalarda o'zboshimchalik bilan devorlar, shiftlar va ayrim holatlarda

pollarga yonuvchan qurilish materiallarini qoplash, bezatish, bo'yash ishlarini olib borish;

- xonalarda me'yor talablariga javob bermaydigan, qo'lbola yasalgan elektr isitish moslamalari hamda vaqtincha o'tkazilgan elektr simlardan foydalanish;

- belgilanmagan joylarda sigareta chekish, ob'ektlar va ularning atrofida payvandlash ishlarini o'tkazish hamda ochiq olov bilan ishlash;

- nosoz gaz quvurlari, asbob-anjomlari va maishiy gaz ballonlaridan foydalanish.

9. Yong'in yoki tutun hidi sezilsa, zudlik bilan quyidagilarni bajarish lozim:

- yong'in-qutqaruv xizmatiga "101" yoki

"1050" raqamlari orqali xabar berish;

- yong'in joyidan insonlarni qutqarish;

- navbatchi xodimlarga xabar berish;

- birlamchi vositalar bilan yong'inni

bartaraf etish choralarini ko'rish.

Yong'inning oldini olish uni o'chirishdan oson!

Yong'inni oldini olish uchun quyidagi qoidalarga rioya qiling:

• Yonuvchi narsa va suyuqliklar olovdan va isitish asboblaridan uzoqda saqlanishi kerak;

• Nosoz elektr asboblaridan foydalanish mumkin emas;

• Bir nechta elektr asboblari vilkalarini bir razetkaga birdaniga tiqma;

• Gugurt o'yinchoq emas, buni doimo yodda tut;

• Yong'in sodir bo'lib qolsa uydan tez chiqishga halaqit bermasligi uchun zina maydonchalari, balkon ortiqcha buyumlardan xoli bo'lishi kerak;

• Transport vositalarida ham yong'in xavfsizligi qoidalariga amal qil;

• Transport vositalarida yonuvchan moddalarni olib yurish taqiqlanadi, yengil



alangalanuvchan suyuqliklarni yo'lovchilar ko'p vagonda tashish juda xavfli;

- Uyda iloji bo'lsa ixcham o't o'chirgich hamda telefon oldida avariya xizmatlari telefon raqamlari ko'rsatilgan qo'llanma osig'liq turishi lozim.

- Yong'in chiqqan hollarda:

- Darhol o't o'chirish xizmati 101 raqamiga xabar bering;

- Mavjud bo'lgan vositalar (o't o'chirgich, suv, qum, qalin yopqichlar) yordamida yong'inni o'chirishga urinib ko'ring;

- Yonayotgan xonaga havo kirishini chekla (derazalarni va eshiklarni zarurat bo'lmasa ochma), quyuq tutun bo'lganda zudlik bilan xonani tark et va eshikni mahkam yoping;

- Xonadan chiqayotganingda ko'zlaringni va nafas olish organlarini tutundan respirator, paxta dokali niqob, ho'llangan latta yoki sochiq bilan himoya qiling.

Jumladan Buxoro neftni qayta ishlash zavodi Bug' havo gaz sexida ushbu oylik davomida. Shuningdek: mavjud yong'in xavfsizligi birlamchi vositalar, gidrantlar va ichki kranlar shaklini yong'in xavfsizligi xodimlari bilan ko'rib sexda muntazam ravishta yong'in xavfsizligi bo'yicha o'quv amaliy mashg'ulotlari o'tkaziladi. Devoriy gazetala ishchi xodimlar tomonidan tayyorlanmoqda. Bu oy uchun sexda yetarli tayyorgarliklar ko'rilgan.